

ЎЗБЕК МУМТОЗ
АДАБИЁТИНИ
ЎРГАНИШДА ЯНГИЧА
ЁНДАШУВЛАР

ИЛМИЙ ЙИФИН ЁЗМАЛАРИ



Филология фанлари доктори, профессор

БОҚИЖОН ТҮХЛИЕВНИНГ

70 ёшига бағишенади



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ

**ЎЗБЕК МУМТОЗ АДАБИЁТИНИ ЎРГАНИШДА
ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР**

ИЛМИЙ ЙИҒИН ЁЗМАЛАРИ

*ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ, ПРОФЕССОР
БОҚИЖОН ТЎХЛИЕВНИНГ
ЕТМИШ ЁШИГА БАГИШЛАНАДИ*

Тошкент – 2024

2024 йилнинг 11 март куни Тошкент давлат шарқшунослик университетида филология фанлари доктори, профессор Боқижон Тўхлиевнинг етмиш ёшга тўлганига бағишилаб «Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишда янгича ёндашувлар» деб аталмиш илмий йигин ўтказиш белгиланган. Ушбу тўпламда олимнинг илмий ишлари тўғрисида чизгилар, яратган асарларининг сираламаси берилиб, ана шу йигинга юборилган ёзмалар жамланди.

Китоб билим ўрганаётган ёшлар ва китобсеварлар учундир.

Тошкент давлат шарқшунослик университетининг Кенгаши нашрга тавсия этган.

М а съ у л м у х а р р и р:

Кудратулла Омонов, филология фанлари доктори, профессор.

Т у з у в ч и л а р :

Рихситилла Алимухамедов, филология фанлари доктори, доцент.

Дилфузатўхлиева, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори.

Т а қ р и з ч и л а р :

Қосимжон Содиков, филология фанлари доктори, профессор.

Илёс Исмоилов, филология фанлари доктори (DSc), доцент.

ҳисобидан бор-йўғи 40 донадан чоп этилган. Уни тузатиш ва тўлдиришлар билан катта ададларда нашр этиш керак.

Маълум бўладики, Боқижон Тўхлиев навоийшуносликда Алишер Навоий асарларини тадқиқ ва таҳлил қилиш, тарғиб ва ташвиқ этиш, ўқиши ва ўқитиши, улуғ шоир адабий меросини салафлари, замондошлари ва издошлари асарлари билан адабий анъана ва ўзаро таъсир жиҳатидан қиёсий ўрганиш, қардош халқлар адабиёти намуналари билан муқояса қилиш, санъаткорлик маҳорати ва асарлари бадиияти, ижодининг жанрий таркиби, мавзу кўлами ва образлар олами, “Хазойин ул-маоний” девонлар туркумидаги энг етакчи жанр бўлимиш ғазаллар шарҳи каби бир неча йўналишларда ҳар томонлама кенг ва чукур тадқиқотлар олиб бораётган серкирра ва сермаҳсул навоийшунос олимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр \\ Тўла асарлар тўплами, X жилдли, 9-жилд. – Тошкент: F.Гулом номидаги НМИУ, 2011.
2. Алишер Навоий. Faroib us-sifar (Ғазалларнинг шарҳ ва изоҳлари), X жилдлик. – Тошкент: “Ўзқитобсавдо”, 2020.
3. Валихўжаев Б. Хожа Аҳрор тарихи. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1994.
4. Маҳмуд В. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Б. Каримов). – Тошкент: “Маънавият”, 2007.
5. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб (И.Бекжон таржимаси). – Тошкент: “Халқ мероси”, 1993, 172-бет.

RISOLALARDA QOFIYALI BAYTLAR TASNIFI

Orzigul Hamroyeva,
*Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Mumtoz poetika nazariyasiga oid risolalarda adabiy tur va janrlarning badiiyat, vazn va qofiya bilan munosabati tadqiqiga alohida o‘rin ajratilgan. Bu risolalarda qofiyaning o‘rni, turlari, qofiyaning tarkibiy qismi sifatida tadqiq etiluvchi radif va hojiblarning ishtiroti asosidagi baytlar tadqiqiga alohida e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan poetikaga oid risolalarda qofiyaga asoslangan quyidagi baytlar tahlilga tortiladi:

1. Muzdavaj bayt
2. Musarra’ bayt
3. Muqaffo bayt
4. Muraddaf bayt
5. Mahjub bayt
6. Mujamma’ bayt

Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asarining 6 bo‘limini nasr va nazmga oid badiiy san’atlarga ajratgan bo‘lib, bo‘limni ikki qismga bo‘lgan holda

tahlil qiladi. Birinchi qism ilmi badi'ga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qismda badiiyat ta'siri natijasida shakllangan baytlar tadqiq etiladi. Nosiridin Tusiy, Rashididdin Vatvot, Vohid Tabriziy, Ahmad Taroziy, Faxri Isfahoniy, Husayn Voiz Koshifiy radif va hojibning o'ziga xos xususiyatlarini keltirish asnosida muraddaf va mahjub baytga to'xtaladi. Atoulloh Husayniy "Badoe' us-sanoe'" asarining "Shuaror orasinda amalda bo'lg'an bayonig'a muhtoj bo'lg'on ba'zi alfoz bayonida" qismida qofiyaga asoslangan baytlarni tahlilga tortadi.

1. **Musarra' bayt.** Musarra' bayt tasri' san'ati asosiga quriladigan bayt bo'lib, "Al-mo'jam", "Hadoyiq us-sehr", "Badoe' us-sanoe'" asarlarida alohida sarlavha ostida tahlilga tortilgan. "Tasri'" lug'atda "ikki qanotli eshik yasamoq" degan ma'noni anglatadi. Musarra' esa "ikki qanotli eshik" ma'nosini anglatadi. Tasri' san'atining xususiyatidan kelib chiqiladigan bo'lsa, bayt misralarini ikki qismga bo'lgan holda ichki qofiyaning keltirilishi "ikki qanotli eshik" ma'nosiga aynan mos tushadi.

Atoulloh Husayniy musarra' baytni qasida janri misolida tushuntiradi.[2: 271] Qasidaning boshlang'ich qismi – matla'da *ikki misra* o'zaro qofiyalanadi. Matla' – musarra' bayt sanaladi. Olim musarra' bayt qasidaning istalgan o'mida kela olishi va garchi matla' she'rning birinchi baytiga nisbatan ishlatsa-da, qolgan o'rnlarda kelsa ham, matla' sifatida nomlanishini ta'kidlaydi(G'azal yoki qit'a boshdan oyoq shu shaklda – bayt misralari o'zaro qofiyali shaklda yozilsa, zebqofiyatayn san'ati sifatida o'rganiladi – O. H.).

Shamsiddin Qays Roziy esa musarra' baytning xususiyati sifatida misra so'nggi (aruz va zarb) vazn va qofiya jihatdan o'zaro mos tushishini keltiradi.

Tartibi mulk-u qoida hilm-u rasmi dod,
Maf'ulu // foilatu // mafoilu // foilon.
Abdulhamid Ahmad Abdulsamad nihod.

Baytda keltirilgan *dod – nihod* qofiyadosh so'zlardagi "alif" va "zol" harfi ridf va raviy sifatida qofiya va ohangdorlikni hosil qilgan. Bayt muzori'i musammani axrab vaznida yozilgan bo'lib, misraning oxirgi rukni foilon sifatida "alif" va "zol" cho'ziq hijo vazifasida o'zaro mos tushgan.

Shamsiddin Qays Roziy va Atoulloh Husayniy ham qasidada matla' bo'lishini qat'iy qoida sifatida keltiradilar. Agar qasidada matla', ya'ni musarra' bayt bo'lmasa, bunday janrdagi asar qasida emas, qit'a bo'lishini aytadilar. Shamsiddin Qays Roziy musarra' bayt bilan masnaviyning qofiyalanishini o'zaro qiyosiy holatda tahlil qiladi. Musarra' bayt va masnaviy baytlarining farqli jihatlarini tushuntiradi. Musarra' bayt qasida, g'azal, tuyuq, ruboiy kabi janrlarda bo'ladi. Bu janrlarning qolgan baytlari qofiya va vazn jihatidan musarra' baytga bog'liq bo'ladi. Masnaviydagи baytlar esa o'zaro mustaqil tarzda qofiyalanadi. Shamsiddin Qaysi Roziy musarra' baytning vazni ham o'zaro mutanosib bo'lishini ta'kidlasa, Atoulloh Husayniy bu fikrga qo'shilmaydi. Qasida va

ruboiyning dastlabki musarra’ baytlari faqatgina qofiyada teng bo‘lishi, vazndagi tenglik lozim emasligini aytadi.

Shamsiddin Qays Roziy “Al-mo‘jam”da qasida qismi: nasib, qasd, guzirgoh, mamduh qismlarda alohida kelgan musarra’ baytlarni tahlil qiladi.

Ey andalibi jonho tovus-i basta ziyvar,
Bekshoy g‘unchayi lab bisaroy g‘unna tar [9:293]

Rashididdin Vatvot “Hadoyiq us-sehr”ning so‘nggi qismida musarra’ baytga qisqa ta’rif beradi. Rashididdin Vatvot ham musarra’ baytni qasida matlasi misolida tushuntiradi.

2. **Muzdavaj bayt.** “Muzdavaj” so‘zi “izdivoj” so‘zining sifatdosh shakli bo‘lib, “juftlashmoq” degan ma’noni anglatadi. Baytdagi har ikki misraning o‘zaro qofiyalanishini juftlashishga qiyoslashadi. Muzdavaj bayt ham qofiya asosiga quriladigan bayt bo‘lib, tasri’ san’atiga asoslanadi. Muzdavaj bayt “Al-mo‘jam” va “Badoe’ us-sanoe”da atroflicha yoritilgan bo‘lib, musarra’ga asoslanishi aytildi. Biroq bu baytning musarra’ baytdan farqi shundaki, baytlar bir-biriga bog‘liq bo‘lmay, bayt misralari o‘zaro mustaqil qofiyalanadi. Odatda muzdavaj bayt masnaviy shaklida bo‘ladi.

Ki har chand bad kardan **oson** bud,
Baqir jomi azu jon **Xuroson** bud.

Chu bi ranj boshi-u bokiza **roy**,
Az on bahra yobi bahra du **saroy**. [9:292]

Atoulloh Husayniy ham masnaviy shaklidagi baytlar muzdavaj bayt ekanligini ta’kidlab, masnaviyning ma’nosini ham “muzdavaj” so‘zi bilan o‘xhash ekanligiga ishora qiladi.[2:272]

3. **Muqaffo bayt.** Muqaffo baytning o‘ziga xos xususiyati shundaki, baytning oxirgi misrasida qofiya keltiriladi. Birinchi misrada esa qofiyaga rioya qilinmaydi. Atoulloh Husayniy nima sababdan bayt misralari o‘zaro qofiyalanmagan so‘zga nisbatan aynan muqaffo atamasining qo‘llanishini shunday izohlaydi: “Bu nom aning uchundirkim, alar qoshinda haqiqiy qofiya oxirg‘i misradadur va birinchi misrada ikkinchi misra qofiyasig‘a muvofiq qilib keltirganlariga nisbatan (bu nomni) qo‘llamoqlari o‘xhatish hukmidadir” [2:272].

Muqaffo bayt lirik janrlarning deyarli barchasida uchraydi. G‘azal, qit’a, qasida, tarji’band, tarkibband kabi janrlarda matla’dan keyingi baytlar muqaffo baytlar sanaladi. Tuyuq, ruboiy kabi janrlarning 2-bayti muqaffo bayt shaklida bo‘ladi. Muammo, lug‘z, ta’rix janrlari bir bayt holida bo‘lsa, shoir ixtiyoriga qarab musarra’ yoki muqaffo baytdan iborat bo‘lishi mumkin.

Shamsiddin Qays Roziy muqaffo baytdagi misralar o‘zaro qofiyalanmasa ham, vazn jihatidan to‘g‘ri kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Olim qofiyalanmagan baytlarning vazniy mutanosibligi va farqli jihatlarini birma-bir tahlil qiladi.

Zihi sarafrizi ki bo poygohat,
V - -// V - - // V - - // V - -
Muyassar nishad charx-i ro dastiyor.
V - - // V - - // V - - // V - -

Mutaqoribi musammani solim vaznida yozilgan ushbu bayt misralarida *poygohat – dastyori* so‘zlari o‘zaro qofiyadosh emas, biroq fauvlun (V - -) rukniga mos tushadi.

Yoki

Ayo podshoh, shariat ki hast,
Zi avsofi tu qosir afkori man.

Bayt misralarida bu holat qonuniyat emas, ya’ni, albatta, misralar so‘ngidagi so‘zlar to‘lig‘icha ruknga mos tushishi shart emas. Olim bu o‘rinda she’r boshdan oyoq bir xil vaznda yozilishi kerakligiga ishora qiladi. Qasida yoki qit’a necha bayt bo‘lishidan qat’i nazar barcha baytlar: musarra’ yoki muqaffo baytlar bir tizim asosida shakllantirilishi kerak. Hazaji musammani solim vaznida yozilgan musarra’ baytning keyingi qofiyalanmagan muqaffo baytlari ham mafoiylun/mafoiylun/mafoiylun rukniga to‘liq mos tushishi kerak.

Atoulloh Husayniy muqaffo baytlar radif bilan birga kelsa, muqaffo muraddaf bayt deb nomlanishini ta’kidlaydi (Radifning ishlatalishiga qarab har qanday bayt: musarra’, muzdavaj, muqaffo, mujamma’ baytlar musarra’i muraddaf, muzdavaji muraddaf, muqaffo’i muraddaf, mujamma’i muraddaf bayt nomi bilan keltiriladi – O. H.).

4. Mujamma’ bayt. “Mujamma”” so‘zi “tajmi”” so‘zidan hosil qilingan bo‘lib, “yaxshilab jam’ qilmoq” degan ma’noni anglatadi. Bunday baytning o‘ziga xos xususiyati shundaki, shoir ikki misrani qofiyadosh shaklda keltiradi. Biroq bu qofiyadoshlik sun’iy (yolg‘onchi) holatda bo‘ladi. Bayt bir qarashda musarra’ bayt ko‘rinishida bo‘ladi. Biroq birinchi misrada keltirilgan qofiya ma’no jihatdan bayt mazmuniga mos tushmaydi. “Birinchi misra oxirinda ma’no jihattin lozim bo‘limg‘an bir lafzni keltirurlar va aning o‘rninda keltirilsa, ma’nog‘a muvofiqroq o‘zga alfoz bo‘lur, natijada eshitkuchi ul so‘zni eshitkanda birinchi misraning qofiyasi ikkinchi misraning qofiyasig‘a to‘g‘ri kelsun uchun keltirilgan bo‘lsa kerak deb tasavvur qilur”.

Buvad dar ko‘y-ki jonon bim-i qatlu meravam shaydo,
Ki mardum dar balo behtar, ki boshad bim-i balo [2:272].

Birinchi misradagi *shaydo* so‘zi bir qarashda *balo* so‘zi bilan qofiyadoshdek tuyaladi. Birinchi misrani o‘qigan kitobxon ikkinchi misrada boshqa qofiyadosh so‘zlarni: *rasvo* yoki *g‘amvo* kabi so‘zlarni kutadi. Biroq ikkinchi misrada kutilgan qofiyadosh so‘zga duch kelinmaydi.

Atoulloh Husayniy mujamma’ baytning bu xususiyatini musarra’ bayt ko‘rinishidagi baytlar bilan bog‘lab tushuntiradi.

Shamsiddin Qays Roziy mujamma’ baytni muqaffo bayt tarkibiy qismida keltirib, muqaffo baytlarda ham mujamma’ bayt bo‘lishi mumkinligini aytadi.

Basahargohon nogoh baman bodi nasim,
Bo‘yi dildori man ovard ham az suyi shamol. [9:297].

Birinchi misradagi *nasm* so‘zi sun’iylik asosida keltirilgan bo‘lib, o‘qiyotgan kitobxon keyingi misrada unga mos ravishda *na ‘im* yoki *muqim* kabi qofiyadosh so‘zlarni kutadi. Bunday baytlarda birinchi misra so‘ngidagi so‘z asosiy qofiyaga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Mujamma’ bayt muqaffo baytdagi asosiy qofiya bilan ham sodir bo‘lishi mumkin. Asosiy qofiya sifatida keltirilgan so‘zda bayt mazmuniga tushmasligi asnosida bu holat yuz beradi.

5. Muraddaf bayt. Mumtoz poetikaga oid risolalarining deyarli barchasida radif qofiya unsuri sifatida o‘rganiladi. Qofiyadan keyingi takrorlanuvchi so‘z radif bo‘lib, radif ishlatalilgan baytlar olimlar tomonidan muraddaf bayt nomi bilan ataladi. Ahmad Taroziy aytganidek, she’rda radifning keltirilishiga boshdan oyoq amal qilinadi. Muraddaf baytlar musarra’, muzdavaj, muqaffo, mujamma’ baytlar bilan birga qo‘llana oladi.

Zulf az ruxi diliston ***barandoz***,
Rasmi gulu guliston ***barandoz***.
Yek xanda fidoyi olamiy kun,
Bunyodi g‘am az jahon ***barandoz***.

Ushbu baytlardagi *barandoz* so‘zi radif bo‘lib, muraddaf bayt sifatida nomlanadi. Agar radif ikki qofiya bilan birga kelsa, bunday bayt zulqofiyatayn muraddaf bayt sanaladi.

Olsa niqob, yuzi qamarni xijil ***qilur***,
To‘ksa jo‘llob so‘zi shakarni xijil ***qilur***.

Ahmad Taroziy bu baytdagi qofiyalarni zulqofiyatayn – ikki qofiya bilan birga kelsa deb izoh beryapti. Biroq baytda uchta so‘z o‘zaro qofiyadosh bo‘lgan: niqob – jo‘llob, yuzi – so‘zi, kamarni – shakarni. Ikkitadan ortiq qofiyadosh so‘zlar manbalarda zulqavofiy atamasi ostida keltiriladi.

6. Mahjub bayt. Asosiy qofiyadan oldin takrorlanib keluvchi so‘z hojib sanaladi. Ahmad Taroziy “radifning ikki qofiya orasida kelishi” hojib ekanligini ta’kidlaydi. Hojib ishlatilgan baytlar mahjub bayt deyiladi. Hojib asosiy qofiya va radifga ta’sir ko‘rsatmagani bois musarra’, muzdavaj, mujamma’, muqaffo, muraddaf baytlar bilan birga qo‘lanaveradi.

Fitna sho‘d baloyi sarv az qaddi yor ***andar*** Eram,
Zisht sho‘d az ruyi niku nigor ***andar*** sanam.

Gar alam, kardast bar diboyi rux, zulfi siyoh,
Xalqa az bahr che dorad sad hazor ***andar*** alam.

Baytdagi *Eram – sanam – alam* so‘zlari asosiy, *yor – nigor – hazor* so‘zlari ichki qofiya bo‘lib, *andar* so‘zi hojib sanaladi. Bunday baytlar mahjub bayt sifatida keltiriladi.

7. Harora she’r. Harora she’r atamasi “Funun ul-balogs‘a” da keltirilgan bo‘lib, boshqa manbalarda uning ta’rifiga duch kelinmaydi. Ahmad Taroziy she’rning asosi sifatida qofiyani taqdim qilgan bo‘lsa-da, qofiyasiz she’r ham bo‘lishini ma’lum qiladi. Harora she’r baytlar qofiyasizligiga asoslanuvchi maxsus janr bo‘lib, radif qofiya vazifasini bajaradi. Qofiya va radif she’r ohangdorligini ta’minlovchi asosiy unsur bo‘lib, olim tomonidan taqdim qilingan bunday she’rlarda radifning o‘zi qofiya vazifasini ham bajaradi. “Funun ul-balogs‘a”da keltirilgan harora she’r namunasi - g‘azalda radifning yoyiq shakli qo‘llangan. Shuning uchun ham radifning o‘zi she’rdagi qofiyaning ishtiropiga hojat qoldirmagan.

Ey so‘zi qandu irni mo‘l, ***dasti manastu domanat***,
Zulfi binafsha, yuzi gul, ***dasti manastu domanat***.

Zuhrov Oy, Mushtariy, husnungki, bo‘ldi mushtari,
Qaydaki bo‘lsang, ey pari, ***dasti manastu domanat***.

Qilmag‘il asru ko‘p sitam xasta ko‘ngulga, qil karam,
Bo‘lsa qiyomat, ey sanam, ***dasti manastu domanat***.

Munchaki o‘rtading meni, ey ko‘zi sho‘xi kofari,
Ya’niki qo‘yg‘amen seni ***dasti manastu domanat***.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, vazn, qofiya, badiiy san’atlar, hojib va radifning o‘z o‘rnida qo‘llanishi baytlar va she’rlarning nomlanishiga asos bo‘ladi. Ahmad Taroziy taqdim qilgan harora she’r – qofiyasiz she’rdagi radifning ishtiropi bevosita qofiya o‘rnida kela olgani bois bunday she’rlar turkiy she’riyatda mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураҳмон Жомий. Рисолаи қоғия. Шарқ мұмтоз поэтикаси. Ҳамидула Болтабоев талқинида. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2006.
2. Атоуллоҳ Ҳусайнний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б.
3. Аҳмад Тарозий А. Фунуну-л-балоға. Тошкент: Хазина. 1996.
4. Ибн Рашиқ. Ал-Умда фи маҳосин аш-шиър ва-адаби ва-нақди. Т. 1-2. Байрут. 1972.
5. Фахри Исфаҳоний. Меъёр ул-жамоли (Кия Садек). Техрон. 1337.
6. Камал ад-Дин Ҳусайн Ба-ъиз Кашифи. Бадаи- ал-афка-р фи- сана-и ўал-ашъар (Новые мысли о поэтическом искусстве). Издание текста, предисловие, примечания и указатели Р. Мусульманкулова. – Москва: Наука, 1977 .
7. Крачковский И. Ю. Арабская поэтика в IX в. Избранные произведения. Т.2. Москва. 1956.
8. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X–XV вв. Москва: Наука. 1989.
9. Шамси Қайси Розий. Ал-Муъжам фи маъよいри ашъору-л-ажам. Перевод с персидского исследование и комментарий Н.Ю.Чалисова. Москва: “Восточная литература” РАН. 1997.
10. Ш. Розий. Ал-Муъжам фи маъよいри ашъору-л-ажам. Душанбе: 1991.
11. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари va уларнинг маромлари. Тошкент: Янги аср авлоди. 2011.
12. Ҳамроева О.Ж. Темурийлар давридаги поэтиказа доир рисолаларда қоғия илмининг қиёсий таҳлили. Монография. -Т., 2023.
13. Hamroyeva O.J. Classification of fine arts in "Hadoyiq us-sikhr". Бухоро давлат университети Илмий Ахбороти.1-сон, 2022 йил. -Б. 47-57.
14. Hamroyeva O.J. Husayn Voiz Koshifiyining “Badoye’ ul-afkor” asari tadqiqi//Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR. 1 (5) Март. -Б.119-201.

ШОҚАН ВАЛИХАНОВНИНГ МАЪРИФАТПАРVARЛИК ВА АДАБИЙ ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ

Ярмухаммат Мадалиев,
Мухтор Ауэзов номидаги Жанубий Қозогистон
тадқиқот университети,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори,
Чимкент, Қозогистон

Ҳар бир мамлакат ва халқ ҳаётига янги ижтимоий-маърифий ғояларнинг кириб келиши, шу ғояларнинг мактаб ва маъриф, матбуот, адабиёт, ва санъат соҳаларида инқилобий ўзгаришларни юзага келтириши тарихий шароит таққозаси билан рўй беради.

Русия Туркистонни босиб олишдан олдин уни ўзлаштиришга киришди. Табииики, у халқларнинг урф-удумларини, турмуш ва ҳаёт тарзини кунт билан ўрганди. Янги ўлкани идора этиш учун маҳаллий халқдан содик

МУНДАРИЖА

Умр шукронаси	3
Биринчи бўлим. Билим кишиларининг қўнгил сўзлари	3
Мумтоз адабиётимиз жонкуяри (Гулчехра РИХСИЕВА)	10
Илм олишни лаззат ва баҳт деб билган олим (Абдухалил МАВРУЛОВ)	12
Ашраф ул-уламо (Шуҳрат СИРЖИДДИНОВ)	16
Забардаст олим, қадимий битиглар ва мумтоз адабиёт билимдони (Абдураҳим МАННОНОВ)	18
Мумтоз адабиётимиз билгаси (Кудратулла ОМОНОВ)	20
Билиг кимда бўлса, бедуглук алур (Қосимжон СОДИҚОВ)	22
Заҳматкашликнинг ноёб тимсоли (Насимхон РАҲМОНОВ)	28
Elm ziyasina bülənd alim (Almaz Ülvı BİNNƏTOVA)	32
Дилкаш дўст ва баркамол олим (Нусратулло ЖУМАХЎЖА)	35
Професор Боқиҷон Тўхлиев портретига чизгилар (Шомирза ТУРДИМОВ)	38
Етук олим, кадрдан дўст (Қурдош ҚАҲРАМОНОВ)	45
Боқиҷон Тўхлиев феномени (Марғуба МИРҚОСИМОВА)	47
Адаб ва илм шарофати (Нурбой ЖАББОРОВ)	50
Улкан эрудитсияли олим (Исламжон ЯКУБОВ)	54
Боқиҷон ака адабиётдан сўз очганларида (Мирсалим АБДУЛЛАЕВ)	59
Камтарин инсоннинг камоли (Шоҳидахон ЮСУПОВА)	60
Илмга бахшида умр (Роза НИЁЗМЕТОВА)	63
Билим кимда бўлса, буюклик бўлар (Гулбаҳор АШУРОВА)	69
Адаб гулшанида тобланган “Кимёй вужуд” (Наззора БЕКОВА)	74
Олим деган номга лойиқ устоз (Улфатхон МУҲИБОВА)	77
Адабиётга бахшида умр (Рихситилла АЛИМУХАМЕДОВ)	78
Камтарин инсон ва меҳрибон устоз (Ботир ЖАФАРОВ)	80
Олими боамал (Хайрулла ҲАМИДОВ)	82
Камтар ва фидойи устоз (Барно АБДУРАҲМОНОВА)	84
Одамнинг жони (Эргаш ОЧИЛОВ)	87
Ўзликни англаш саодати (Бахтиёр ФАЙЗУЛЛОЕВ)	93
Қомусий олим (Минҳожиддин ЖАМОЛИДДИНОВ)	99
Меҳрибон устоз (Қосимжон СИДИҚОВ)	102
Жонкуяр устоз, сермаҳсул олим (Давлатёр ЖУМАШОВ)	104
Олими олиймақом (Илёс ИСМОИЛОВ) (сўнгсўз ўрнида)	105
 Иккинчи бўлим. Илмий мақолалар. Адабиётшунослик	108
Rahmatulla Barakayev. “Momolardan meros bo‘lib qolgan ertaklar” yoki T.Adashboev ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari	108
Адҳамбек Алимбеков. Ҳамза Ҳакимзода феномени (Ҳамза бадиияти)	114
Низомиддин Муродий. «Диван лугат-ат-турк» и «Кутадгу билиг»: воплощение влияния персидско-таджикской литературы в восточном Туркестане	120
Умрзоқ Жуманазаров. Улуғ Алишер Навоий ҳақида достон	125
Salimaxon Mirzayeva, Gulsanam Mashrapova. Romanik dostonlar sujeti va safar motivi	132
N.Bekova, M.Rahmatova. Alisher Navoiy sheriyatida xazon tasviri	136
Эргаш Очилов. Боқиҷон Тўхлиев – навоийшунос	139
Orzigel Hamroyeva. Risolalarda qofiyali baytlar tasnifi	149
Ярмуҳаммат Мадалиев. Шоқан Валихановнинг маърифатпарварлик ва адабий эстетик қарашлари	155

Муҳиббек Рустамий, Салимахон Рустамий. Алийшер Навоиййинг “Махбубу-л-кулуб” асарида инсоний фазилатлар баёни	158
З.Х.Ульмасова, З.С.Хусейнова. Вклад Абдурахмана Джами и Алишера Навои в развитии таджикско-узбекской литературы	162
Фаридахон Каримова. Дебочаларнинг шаклий-поэтик турлари хусусида	167
Олимжон Абдуллоев. Амир Алишер Навоиййинг «Лайли ва Мажнун» достонида Амир Хусрав Дехлавийнинг «Мажнун ва Лайли» достони анъаналари	172
Тозагул Матёкубова. Тафаккур кенглиги ва тахайюл юксаклиги	177
Бахтиёр Файзуллоев. Мумтоз адабиёт тадқиқотчиси	182
Аҳаджон Муҳаммадиев. Муҳий ва унинг замондошлари ижодида тарихий воқеаларнинг бадиий талқини	189
Мўминжон Сулаймонов. Ҳофиз Хоразмий ҳикматлари	197
Ozoda Tojiboyeva. G'azalda mavzu va tasvir uyg'unligi	201
Обиджон Каримов, Дурдана Дадажонова. Абдулла Орипов – моҳир таржимон	205
Obitjon Karimov. Oliy ta'lim tizimida darsliklarning yangi avlodи	209
Ozodaxon Boltaboyeva. Xilvatiy Namangoniy ishqiy lirikasida poetik tasvir: an'ana va o'ziga xoslik	215
Iroda Ishonxanova. Buyuk bobokalonimiz hayoti va ijodini qiyoslash usulida o'rganish	
Saodat Abduraximovna. Maqollarning she'riyatdagi o'rni va ahamiyati	219
Алишер Раззоқов. Алишер Навоий шеъриятида муғаний образи	229
N.Saydaxmedova. Muhammad Yusuf tarjimayi holini o'tganish tajribasidan	236
Сайдмурод Холбеков. “Каъб ул-аҳбор ҳикоялари” агиографик асарининг генезиси	242
Mahmuda Otaxanova. Ma'shuqa timsoli uzra chustiy chizgilarি	248
Hulkar Alikulova. O'zbek va Qozoq yor-yorlarida poetik voqelik tipologiyasi	253
Нигора Худоёрова. “Девони Фоний”да татаббуълар талқини	298
Gulsanam Mashrapova. “O'zbek xalq sehrli ertaklari tipologik katalogi” haqida	267
Илҳом Жумаев. “Қутадғу билиг” асарида қадимий мақоллар талқини	271
Jasurbek Ibragimov. “Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari	275
Сурайё Дўстқораева. Алишер Навоий лирикасида “кўз” тимсолининг кўлланиш хусусиятлари	282
Шоҳруҳ-Мирзо Жўраев. “Қутадғу билиг” достонининг ўзбек олимлари томонидан ўрганилиши	285
Oydin Ametova. Yusuf Xos Hojibning obraz yaratish mahorati	291
Ibrohim Ahmadjonov. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida komillik sari yo'l	296
Gulira'no Xolmatova. “Munshaot” maktublarida she'riy shakllarning berilishi	299
Mahliyo Rasulova. “Maxzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarning qiyosiy tahlili	303
Тилшунослик	308
Hamidulla Dadaboyev. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida bosh va ich kiyim nomalarining ifodalaniishi	308
Botir Jafarov. “Kodeks kumanikus” hamda “Tarjumon turkiy” qo'lyozmalarining til va yozuvga oid umumiyy va xususiy holatlar tahlili	316
Lutfulla Sindorov. «Hibat ul-haqoyiq» asari semantik strukturasida ma'no kengayishi va torayishi yuz bergan so'zlar	320
Furqat Nurmanov. Sharq allomalari merosi - tilshunoslik fani shakllanishining poydevori	325
Мадина Жўраева. Ўрта асрларда Мовароуннахрда адабий-илмий ҳаёт ва унинг дунё илм фани ривожидаги ўрни	330
Шаҳноза Тўлагонова. Қадимги туркий тилдаги стереотип бирликлар услубида қаршилантириш ҳамда ўхшатиш	333